Toshkent amaliy fanlar universitetining
2022-yil 13-oktyabrdagi 1-son
yig‘ilishiga 7-ilova

AKADEMIK BAHOLASH TARTIBI
(2022-2023 o‘quv yilidan)

TOSHKENT – 2022

MUNDARIJA

1-bob. Umumiy qoidalar 3

1.1. Qo‘llanish sohalari va shartlari 3

1.2. Ta’limni kredit tizimida baholashning umumiy tartibotlari 3

2-bob. Ta’limni kredit tizimida baholash bilan bog‘liq atamalar 4

3-bob. Nazorat turlari va mezonlari 5

3.1. Kunduzgi ta’lim shakli bo‘yicha nazorat turlari 5

3.1.1. Joriy nazarot 6

3.1.2. Oraliq nazorat 6

3.1.3. Yakuniy nazorat 8

3.2. Sirtqi (masofaviy) ta’lim shakli bo‘yicha nazorat turlari 9

3.3. Talabalar bilimini mezonlari 9

4-bob. Talabalar bilimini baholash ko‘rsatkichlari 11

4.1. O‘zlashtirish ko‘rsatkichi (foiz)ni yig‘ish tartibi 11

4.2. O‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini hisoblash tartibi 12

4.3. Baholash natijalarini qayd qilish tartibi 13

4.4. O‘zlashtirilmagan fanlarni qayta topshirish tartibi 14

5-bob. Yakuniy qoidalar 14

1-bob. Umumiy qoidalar

1.1. Qo‘llanish sohalari va shartlari

1. Mazkur baholash tartibi Toshkent amaliy fanlar universitetiga (bundan keyingi o‘rinlarda – Universitet deb yuritiladi) o‘qishga qabul qilingan talabalarning bilimini nazorat qilish va baholashda qo‘llaniladi.

2. O‘zlashtirish darajasi olingan bilim, ko‘nikma va malakani baholashda qo‘llaniladi. O‘zlashtirish ko‘rsatkichi yuqoridagi omillarni baholash uchun asosiy mezon hisoblanadi.

3. Ushbu baholash tartibi asosida fanlarni to‘liq yoki qisman o‘zlashtirgan hamda o‘quv rejasida nazarda tutilgan yakuniy attestatsiya natijasiga ko‘ra bitiruvchilarga O‘zbekiston Respublikasida oliy ma’lumot to‘g‘risidagi hujjat sifatida e’tirof etiladigan belgilangan namunadagi diplom, davlat attestatsiyasini topshiraolmaganlarga esa tegishli tartibda tasdiqlangan ma’lumotnoma beriladi.

4. O‘quv mashg‘ulotlarida talabalar mazkur baholash tartibi bilan tanishtiriladi.

1.2. Ta’limni kredit tizimida baholashning umumiy tartibi

5. Ta’limning kredit tizimi talabaning auditoriya va mustaqil ta’limdagi faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan. Kredit tizimida baholashning shaffofligi ta’minlanadi.

6. Ta’limning kredit tizimining asosiy afzalliklaridan biri – oliy ta’lim muassasalariaro talaba almashinuvini soddalashtiradi. Bu tizimda tanlov fanlarining ko‘pligi ish beruvchilar uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlanishini ta’minlab beradi.

7. Talaba ta’limning kredit tizimida muvaffaqiyatli ta’lim olishi uchun quyidagi talablarni bajarishi lozim:

- mustaqil ishlashi;
- tanqidiy, kreativ va tahliliy fikrlay olishi;
- mas’uliyatliligi;
- o‘ziga ishonchning yuqoriligi;
- aniq maqsad sari mustaqil harakatlanishi;
- jamoa va kichik guruxlarda ishlay olishi;
- o‘zi qiziqqan kasb va mutaxassisligidan kelib chiqib, fanlarni to‘g‘ri tanlashi.

8. Talaba fanni to‘liq o‘zlashtirgan holdagina o‘zlashtirish ko‘rsatkichiga ega bo‘ladi. O‘zlashtirish ko‘rsatkichi kredit to‘plash uchun asosiy mezon hisoblanadi.

9. Talaba ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasidan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasida oliy ma’lumot to‘g‘risidagi hujjat sifatida e’tirof etiladigan, belgilangan namunadagi diplomni olishi uchun to‘rt yillik ta’limda 240 kredit, uch yillik ta’limda 180 kredit to‘plashi talab etiladi.

10. Bir (1) kredit 30 akademik soatga teng. Talaba o‘quv fanidan 60 foiz va undandan yuqori o‘zlashtirish ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan holda ushbu fandan kredit to‘playdi, aks holda mazkur fandan kreditga ega bo‘lmaydi.

11. O‘quv semestrida 30 kreditgacha qiymatga ega o‘quv fanlari o‘zlashtiriladi.

Ixtiyoriylik asosida navbatdagi o‘quv semestriga qo‘shimcha ravishda oldingi o‘quv semestrida o‘zlashtirilmagan ikkita fan bo‘yicha kredit qiymatga ega o‘quv fanlarini qo‘shimcha o‘zlashtirish mumkin. Bunda, o‘quv semestrida ko‘pi bilan yettita fan bo‘yicha kredit qiymatga ega fanlarni o‘zlashtirishiga yo‘l qo‘yiladi.

12. Yuqoridagi mezonlardan kelib chiqqan holda, talaba yetarli kredit to‘play olmasligi sababli ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv dasturini tugatish istagini bildirgan taqdirda, unga belgilangan shakldagi akademik ma’lumotnoma taqdim etiladi.

2-bob. Ta’limni kredit tizimida baholashga oid atamalar

13. Ta’limni kredit tizimida baholash jarayonida quyidagi atamalar qo‘llaniladi:

GPA (Grade Point Average) – ta’lim oluvchining dastur bo‘yicha o‘zlashtirgan ballari o‘rtacha qiymati bo‘lib, u quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$GPA = \frac{K1*U1+K2*U2+K3*U3\ldots+Kn*Un}{K1+K2+K3\ldots+Kn}$$, bunda:

K — har bir fan/modulga ajratilgan kreditlar miqdori;

U — har bir fan/modul bo‘yicha talaba to‘plagan baho (5 ballik tizimda);

akademik mobillik - oliy ta’lim muassasasi talabalarining muayyan vaqt mobaynida respublika hududidagi yoki chet eldagi boshqa bir oliy ta’lim muassasasiga o‘qish maqsadida borishi;

mobillik dasturi - ta’lim to‘g‘risidagi kelishuv asosida akademik mobillik davrida talaba tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan ta’lim dasturi;

kredit — ta’lim olish natijalariga ko‘ra talaba tomonidan muayyan fan bo‘yicha o‘zlashtirilgan o‘quv yuklamasining o‘lchov birligi. Kreditlar qoidaga muvofiq butun sonlarda ifodalanadi;

kreditlarni berish - malaka yoki uning alohida qismlariga qo‘yilgan talablarga muvofiq erishilgan ta’lim olish natijalariga ko‘ra talaba yoki boshqa ta’lim oluvchilarga sinov birliklarini rasmiy taqdim etish jarayoni;

kreditlarni ko‘chirish - talabalarning akademik mobilligini ta’minlash maqsadida bir oliy ta’lim muassasasi ta’lim dasturi bo‘yicha olingan kreditlarni boshqa oliy ta’lim muassasasiga ko‘chirish va tan olish;

kredit soati - ma’ruza, laboratoriya, seminar, studiya va amaliy mashg‘ulotlar hamda amaliyotlarning 1 akademik soati 40 daqiqaga teng deb olinishi;

kreditlarni tan olish - boshqa ta’lim muassasasida erishilgan va baholangan ta’lim olish natijalarining Universitetdagi mavjud fan dasturlaridan birining talablariga javob berishini tasdiqlash;

kredit to‘plash - ta’lim elementlarini o‘zlashtirish va boshqa yutuqlarga erishish natijasida taqdim etiladigan birliklarni to‘plash;

ta’lim natijalari - talaba tomonidan o‘zlashtirilgan va ball (baho) bilan tasdiqlangan malaka darajasini aks ettiradigan, ta’lim jarayonini muvaffaqiyatli tugallagach, o‘zlashtirgan ko‘nikmalari, topshiriqlarni tushuntirishi va ularni bajarish qobiliyatining tavsifi;

ta’lim to‘g‘risidagi ma’lumotnoma - o‘zlashtirilgan fanlar, to‘plangan sinov birliklari miqdori, olingan ball (baho)lar aks ettiriladigan talabaning akademik o‘zlashtirishi bo‘yicha ma’lumot;

akademik ma’lumotnoma (transkript) - ta’lim olishning tegishli davrida o‘zlashtirilgan fanlar ro‘yxati, kreditlar va baholarning harf va raqamlardagi ifodasini o‘z ichiga olgan, belgilangan shakldagi hujjat;

joriy nazorat — talabaning fan mavzulari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, seminar, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarida og‘zaki so‘rov, test o‘tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o‘tkaziladi;

oraliq nazorat — semestr davomida o‘quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o‘z ichiga olgan) bo‘limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazoratining soni (bir semestrda bir marta o‘tkazilmasligi lozim) va shakli (yozma, og‘zaki, test va hokazo) o‘quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

Yakuniy nazorat – semestr yakunida (yoki fan tugagandan so‘ng) o‘zlashtirgan bilimlarini baholash turi;

o‘qish yuklamasi — talaba tomonidan o‘quv faoliyatining barcha turlari — ma’ruza, amaliy mashg‘ulot, seminar, laboratoriya ishi, kurs loyihasi (ishi), amaliyot va mustaqil ishni amalga oshirish asosida kutilgan o‘quv natijalariga erishish uchun zarur bo‘lgan soatlar hajmi;

ta’lim elementlari — ta’lim dasturining bir qismi bo‘lib, ta’lim olish natijalariga erishish va ta’lim dasturida ko‘rsatilgan bilimlarni o‘zlashtirishga ko‘maklashuvchi o‘qitish turi;

transkript — ta’lim olishning tegishli davrida o‘zlashtirilgan kreditlar va baholarning harf va raqamlardagi ifodasi ko‘rsatib o‘tilgan fanlar ro‘yxatini o‘z ichiga olgan belgilangan shakldagi hujjat.

Vazifa/topshiriqlar – fanlarning muayyan kontentini talaba tomonidan mustaqil bajariladigan faoliyatning shakli (mustaqil ish topshiriqlarini fan o‘qituvchisi beradi);

Loyiha – fan o‘qituvchisi tomonidan muayyan talabaga yoki talabalar guruhiga berilgan topshiriqning shakli (taqdimot-loyiha topshiriqlarini fan o‘qituvchisi beradi);

Imtihon nazoratchisi – oraliq, yakuniy va boshqa nazorat turlarini o‘tkazishda nazoratda qatnashib, tartibni va nazoratni ta’minlashga yordam beradigan personal;

O‘zlashtirish qaydnomasi – muayyan fan bo‘yicha guruhning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini aks ettiruvchi ta’lim faoliyati natijalariga oid hujjat.

3-bob. Nazorat turlari va mezonlari

3.1. Kunduzgi ta’lim shakli bo‘yicha nazorat turlari

14. Bilimni nazorat qilish turlari quyidagilardan iborat:
- joriy nazorat (JN);
- oraliq nazorat (ON);
- yakuniy nazorat (YAN).

15. O‘quv semestri davomida o‘quv fanining o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 100 ball deb belgilanadi. Shundan, joriy nazorat 40 ballik, oraliq va yakuniy nazoratlarning har biri 30 ballik ko‘rsatkich bilan baholanadi.

3.1.1. Joriy nazorat

16. Joriy nazoratning 40 ballik ko‘rsatkichi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:
- Workshop – 20 ball;
- Vazifa/topshiriqlar – 10 ball;
- Loyiha – 10 ball.

17. Workshop bo‘yicha baholash ushbu tartibning 4-bobida batafsil beriladi.

18. Vazifa/topshiriqlar va Loyiha mustaqil ish topshirig‘i sifatida:
- esse, individual taqdimotlar, tadqiqot o‘tkazish;
-anketa-so‘rov, keys-stadi, test tuzish, masala tuzish;
-o‘quv loyihalarini tayyorlash;
-korxona va tashkilotlar faoliyatini tahlil qilish;
-maqola va tezislarni o‘rganib, xulosalar yozish;
-ilmiy monografiyalar, o‘quv adabiyotlarini o‘rganish va xulosa yozish, taqqoslash;
-ilmiy-amaliy anjumanlarga ma’ruza, tezislar va ilmiy maqolalarni tayyorlash;
-intervyu va turli axborotlarni tahlil qilish kabi shakllarda beriladi.

19. Mustaqil ishlarni baholash ushbu tartibning 4-bobida batafsil berilgan.

3.1.2. Oraliq nazorat

20. Oraliq nazorat o‘quv semestrining fan dasturi(sillabus)da belgilangan haftada (yoki muddatda) bo‘lib o‘tadi. Oraliq nazorat har bir o‘quv fanidan bir marta olinadi. Undagi savollar o‘quv semestrining boshidan shu haftaga qadar o‘tkazilgan o‘quv mashg‘ulotlar va mustaqil ta’lim uchun berilgan topshiriqlar asosida o‘tkaziladi.

21. Oraliq nazoratni:
-taqdimot, loyiha, o‘quv loyiha;
-test, esse, keys-stadi, assesment;
-bayon yoki yuqoridagilarning aralash varianti va boshqa turdagi yozma shakllarda o‘tkazilishga yo‘l qo‘yiladi.

22. Oraliq nazorat turining topshiriqlari tegishli kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan ishlab chiqiladi va o‘quv nazorat ishlari bo‘limining mas’ul xodimiga nazoratga kamida 5 kun qolganida kodlangan shaklda topshiriladi.

23. Oraliq nazorat savollari o‘quv mashg‘ulotlari davomida o‘tilgan mavzular hamda mustaqil ta’lim uchun berilgan topshiriqlar asosida shakllantiriladi hamda professor-o‘qituvchilar tomonidan savollar to‘plamidan namunalar talabalarga

beriladi. Oraliq nazorat uchun saralangan yakuniy savollarning konfedensialligi o‘quv nazorat ishlari bo‘limi va savollarni tuzgan professor-o‘qituvchilar tomonidan ta’minlanadi.

24. Oraliq nazoratlar o‘quv nazorat ishlari bo‘limi hamda fakultet dekanati tomonidan belgilangan grafik asosida o‘tkaziladi. O‘quv nazorat ishlari bo‘limi, fakultet dekanati va kafedra oraliq nazoratini o‘tkazish uchun mas’ul hisoblanadi. Oraliq nazoratlar o‘quv mashg‘ulotini olib borgan professor-o‘qituvchi tomonidan o‘tkaziladi. O‘tkazish shakli fanning xususiyatidan va moddiy-texnik bazadan kelib chiqib belgilanadi.

25. Oraliq nazoratlarni o‘tkazish uchun fakultet dekani hamda o‘quv nazorat ishlari bo‘limi tomonidan ishchi guruh va apellyatsiya komissiyasi tarkiblari shakllantiriladi. Ishchi guruh tarkibi rais, nazoratchilar va oraliq nazoratni tekshiruvchi professor-o‘qituvchilardan iborat bo‘ladi. Apellyatsiya komissiyasi rais va a’zolardan tarkib topadi.

26. Bir kunda ikkitagacha fandan oraliq nazorat topshirishga imkon beriladi.

27. Oraliq nazoratni topshirish uchun, odatda 2 akademik soatdan kam bo‘lmagan vaqt belgilanadi. Vaqt oralig‘i o‘quv fani va topshiriqlarning xususiyatidan kelib chiqib, o‘zgarishi mumkin.

Yozma ish shaklidagi Oraliq nazorat yakunlanganidan so‘ng, Ishchi guruh tomonidan nazorat topshiriqlari shifrlanadi va o‘quv nazorat ishlari bo‘limi (fakultet dekanati)ning mas’ul xodimiga topshiriladi. Mas’ul xodim tekshiruvchi o‘qituvchilarga oraliq nazoratni beradi. Imtihon natijalarini baholovchi o‘qituvchilar eng ko‘pi bilan 3 (uch) kunda tekshirib natijalarni o‘quv nazorat ishlari bo‘limi (dekanat)ning mas’ul hodimiga taqdim etadi. Shifrlangan nazorat ishlari identifikatsiya qilinib, 1 (bir) kun muddat ichida o‘quv nazorat ishlari bo‘limi (fakultet dekanati)ga topshiradi. O‘quv nazorat ishlari bo‘limi (fakultet dekanati) tegishli o‘quv fani o‘qituvchilari ko‘magida natijalarni talabalarga 3 (uch) kun muddat ichida e’lon qilib, e’lonlar doskasiga va universitetning ta’lim platformasiga joylashtiradi.

28. Oraliq nazoratning natijalari kamida 1 (bir) hafta ichida e’lon qilinadi.

29. Natijalar e’lon qilingan vaqtdan boshlab, talaba bir kun muddat ichida o‘quv nazorat ishlari bo‘limi (fakultet dekani)ning nomiga apellyatsiya bo‘yicha ariza berish huquqiga ega. Apellyatsiya komissiyasi tomonidan kamida besh ish kuni ichida talabaning arizasi bo‘yicha nazorat ishi ko‘rib chiqiladi. Apellyatsiya komissiyasi xulosasi muhokama qilinmaydi.

30. Oraliq nazorat belgilangan muddatda topshirilmasa (talaba asoslovchi sababini ko‘rsatgan holda), natijalar e’lon qilingan vaqtdan boshlab, 24 soat ichida ariza bilan murojaat qiladi. Talaba 10 kun ichida nazoratni topshirishi mumkin.

Oraliq nazoratni topshirish tartibi o‘quv nazorat ishlari bo‘limi (dekanat)ning tomonidan belgilanishi mumkin.

31. Oraliq nazoratni qayta topshirish uchun:

- grafik asosida o‘n kun muddatda qayta topshirishga vaqt ajratiladi;
- qayta topshirilgan oraliq nazorat bo‘yicha belgilangan tartibda apellyatsiya berishga yo‘l qo‘yiladi;

- oraliq nazoratni qayta topshirishda sababsiz ishtirok etmagan talabalarga boshqa muddatda qayta topshirish imkoniyati o‘quv nazorat ishlari bo‘limi(fakultet dekani)ning tomonidan berilishi mumkin.

32. Joriy baholash va oraliq nazoratga ajratilgan ballarning har biridan 60 foizdan kam bo‘lganda yoki oraliq nazoratga sababsiz kelmagan talaba oraliq nazoratni qayta topshiradi.

3.1.3. Yakuniy nazorat

33. Yakuniy nazorat har o‘quv semestri yakunida o‘tkaziladi.

34. Yakuniy nazorat savollari o‘quv semestrida o‘tilgan barcha mavzular va mustaqil ta’lim uchun berilgan topshiriqlarni qamrab oladi.

35. Yakuniy nazorat:

-taqdimot, loyiha, o‘quv loyiha;

-test, esse, keys-stadi, assesment;

-bayon yoki yuqoridagilarning aralash varianti va boshqa turdagi shakllarda o‘tkazilishga yo‘l qo‘yiladi.

36. Yakuniy nazorat turining topshiriqlari tegishli kafedra professor-o‘qituvchilar tomonidan ishlab chiqiladi va o‘quv nazorat ishlari bo‘limining mas’ul xodimiga nazoratni o‘tkazishga kamida o‘n kun qolganida variantlarga bo‘lingan holda kodlab topshiriladi.

37. Yakuniy nazorat savollarining ma’lum fragmentlari (namunalari) nazorat o‘tkazilishidan o‘n kun oldin talabalarga tayyorgarlik ko‘rish uchun beriladi.

38. Yakuniy nazorat savollarining variantlarga bo‘lingan oxirgi shaklining konfedensialligi ta’minlanadi. Buni ta’minlashga yakuniy nazorat topshiriqlarini tuzgan kafedra mudiri, professor-o‘qituvchisi va o‘quv nazorat ishlari bo‘limi xodimlari mas’ul hisoblanadi.

39. Yakuniy nazoratlar o‘quv nazorat ishlari bo‘limi (dekanat) tomonidan tasdiqlangan grafik asosida o‘tkaziladi. O‘quv nazorat ishlari bo‘limi, dekanat va kafedra yakuniy nazoratni o‘tkazish uchun mas’ul hisoblanadi. Yakuniy nazoratlar o‘quv mashg‘ulotlarini olib borgan professor-o‘qituvchi ishtirokida o‘tkaziladi. O‘tkazish shakli fanning xususiyatidan, moddiy-texnik bazadan kelib chiqib belgilanadi.

40. Yakuniy nazoratni o‘tkazish uchun o‘quv nazorat ishlari bo‘limi (dekanat) tomonidan ishchi guruh va apellyatsiya komissiyasi tarkiblari shakllantiriladi. Ishchi guruh tarkibi rais, nazoratchilar va yakuniy nazoratni tekshiruvchi professor-o‘qituvchilardan iborat bo‘ladi. Apellyatsiya komissiyasi tarkibi rais va a’zolardan iborat bo‘ladi.

41. Bir kunda ikkitagacha fandan yakuniy nazorat topshirishga yo‘l qo‘yiladi.

42. Yakuniy nazoratni topshirish uchun 3 akademik soatdan kam bo‘lmagan vaqt belgilanadi. Vaqt oralig‘i o‘quv fani va topshiriqlarning xususiyatidan kelib chiqib, o‘zgarishi mumkin.

43. Yozma ish shaklidagi Yakuniy nazorat yakunlanganidan so‘ng, o‘quv nazorat ishlari bo‘limi (dekanat) tomonidan nazorat topshiriqlari qabul qilib olinadi va shifrlanadi. Mas’ul xodim tekshiruvchi o‘qituvchilarga talabalarning ism-sharifi ko‘rsatilmagan holdagi yakuniy nazorat ishlarini beradi. Ular 3 kun muddat ichida

tekshirib, tekshirilgan, o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari qo‘yilgan nazorat ishlarini o‘quv nazorat ishlari bo‘limi(dekanat)ga topshiradi. Nazorat topshiriqlari identifikatsiya qilinib, bir kun muddat ichida o‘quv nazorat ishlari bo‘limi (fakultet dekanati)ga topshiradi. O‘quv nazorat ishlari bo‘limi tegishli fan o‘qituvchilari ko‘magida natijalarni talabalarga 3 kun muddat ichida e’lon qilib, e’lonlar doskasiga va universitetning ta’lim platformasiga joylashtiradi.

44. Yakuniy nazoratning natijalari bir haftada e’lon qilinadi.

45. Yakuniy nazoratning natijasidan qoniqmagan talaba, natijalar e’lon qilingan vaqtdan boshlab, bir kun ichida o‘quv nazorat ishlari bo‘limi (fakultet dekani)ning nomiga apellyatsiya bo‘yicha ariza berish huquqiga ega. Apellyatsiya komissiyasi tomonidan besh kun ichida talabaning arizasi bo‘yicha yakuniy nazorat ishi ko‘rib chiqiladi. Apellyatsiya komissiyasi xulosasi muhokama qilinmaydi.

46. Joriy va oraliq nazoratlarning har biridan 60 foizdan kam bo‘lganda yoki yakuniy nazoratga ajratilgan ballning 60 foizi(18 ball)dan kam ball to‘plaganda yoxud joriy, oraliq va yakuniy nazorat ballarining yig‘indisi 60 balldan kam bo‘lganda talaba akadem qarzdor deb hisoblanadi.

47. Yakuniy nazoratga talaba belgilangan muddatda uzurli sabablar (kasalligi tufayli statsionar davolanayotganligi, tabiiy halokat sodir bo‘lgan hududlarda qolib ketganligi, oilasi va yaqin qarindoshlari vafot etganda) bilan ishtirok etmasa, ishtirok etmagan yakuniy nazoratini o‘n kun ichida topshirish huquqiga ega bo‘ladi.

48. Yakuniy nazorat topshiraolmagan talabalarga yakuniy nazoratni ikki martagacha topshirishga ruxsat beriladi.

49. Yakuniy nazoratda ketma-ket ikki marta topshiraolmagan talabalarga Universitet Kengashi qarori bilan uchinchi marta maxsus komissiya tomonidan yakuniy nazoratni qayta o‘tkazishga ruxsat berilishi mumkin.

50. Yakuniy nazoratni qayta topshirish imkoniyatlaridan ham ijobiy baholanmagan talabalar to‘lov asosida yozgi semestr davomida tegishli fanlar bo‘yicha qo‘shimcha o‘qitiladi va yakuniy nazorat topshiradi.

3.2. Sirtqi (masofaviy) ta’lim shakli bo‘yicha nazorat turlari

51. O‘quv semestri davomida o‘quv fanining o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 100 ball deb belgilanadi. Shundan, joriy baholashga ball ajratilmaydi, oraliq nazorat va yakuniy nazoratlar har biri 50 ballik ko‘rsatkich bilan baholanadi.

Oraliq va yakuniy nazoratlar 3.1 bo‘limda qayd etilgan tartibda onlayn va/yoki oflayn tartibda Sirtqi ta’lim va o‘quv nazorat ishlari bo‘limi (dekavnat) tomonidan belgilangan shaklda o‘tkaziladi.

3.3. Talabalar bilimini baholash mezonlari

52. O‘quv fani (mavzulari) bo‘yicha talabaning bilimini baholash o‘zlashtirish darajasiga asoslanadi.

53. O‘quv fani (mavzular) bo‘yicha bilimi quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

95-100 ball	-talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi; -ijodiy, kreativ fikrlay oladi, fanlararo (mavzulararo) mantiqiy bog‘lanishni tushunadi; -mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi; -fan (mavzulari)ning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi, boshqalarga o‘rgatadi; -fan (mavzulari) bo‘yicha tasavvur, ko‘nikma va bilimga ega.
90-94 ball	-talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi; -fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi; -fan (mavzulari)ning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi, boshqalarga o‘rgatadi; -fan (mavzulari) bo‘yicha tasavvur, ko‘nikma va bilimga ega.
85-89 ball	-talaba mustaqil xulosa qiladi; -mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi; -fan (mavzulari)ning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi; -fan (mavzulari) bo‘yicha tasavvur, ko‘nikma va bilimga ega.
80-84 ball	-talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi; -fan (mavzulari)ning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi; -fan (mavzulari) bo‘yicha tasavvur, ko‘nikma va bilimga ega.
75-79 ball	-talaba fan (mavzu) bo‘yicha fikri shakllangan, olgan bilimini amalda qo‘llay oladi; -fan (mavzulari)ning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi; -fan (mavzulari) bo‘yicha tasavvur, ko‘nikma, bilimga ega.
70-74 ball	-talaba olgan bilimini amalda qo‘llay oladi; -fan (mavzulari)ning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi; -fan (mavzulari) bo‘yicha tasavvur, ko‘nikma, bilimga ega.
65-69 ball	-talaba olgan bilimini nazariy egallagan; -fan (mavzulari)ning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi; -fan (mavzulari) bo‘yicha tasavvurga ega.
60-64 ball	-fan (mavzulari)ning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi; -fan (mavzulari) bo‘yicha tasavvurga ega.
0-59 ball	-talaba fan dasturini o‘zlashtirmagan; -fan (mavzulari)ning mohiyatini tushunmaydi; -fan (mavzulari) bo‘yicha tasavvurga ega emas.

54. Nazorat turlarini o‘tkazish bo‘yicha tuzilgan topshiriqlarning mazmuni talabaning fan bo‘yicha yakuniy bilimini xolis (obyektiv) va aniq baholash imkoniyatini berishi shart.

55. Fanlarni o‘rgatish bo‘yicha guruh talabalari darajalarga bo‘linishi mumkin. Guruh talabalari bilimi bo‘yicha uch guruhga bo‘linadi. Bunda: “A” daraja yangi boshlovchi talabalar guruhi; “V” daraja fan bo‘yicha o‘rtacha bilimga ega talabalar guruhi; “S” daraja fan bo‘yicha yuqori bilimga ega bo‘lgan talabalar guruhi.

56. Xorijiy tillar bo‘yicha fanlar CEFR darajasi bo‘yicha “A1”, “B1” va “C1” darajalarga bo‘linadi. Akademik ma’lumotnoma, o‘zlashtirish qaydnomasi va

boshqa hujjatlarga talabaning bahosi quyidagicha shaklda ko‘chiriladi: CEFR A1; CEFR B1; CEFR C1.

57. Talabalarning ma’ruzalarda qanashishlari majburiy hisoblanmaydi, professor-o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilgan ma’ruza mazmunini talaba mustaqil holatda o‘zlashtirishi mumkin.

58. Sirtqi ta’lim talabalari uchun o‘quv nazorat ishlari bo‘limi (dekanat) tomonidan belgilangan tartib bo‘yicha bir (yoki ikki) haftada bir marta masofaviy tarzda o‘quv mashg‘ulotlari olib borilishi mumkin.

59. Sirtqi ta’lim talabalariga alohida platforma orqali o‘quv semestri davomida professor-o‘qituvchilar tomonidan vazifa va topshiriqlar beriladi. Topshiriqlarning bajarish muddati professor-o‘qituvchi tomonidan qat’iy belgilanishi mumkin.

60. Sirtqi ta’lim talabalari uchun joriy baholash o‘tkazilmaydi hamda ular uchun tashkil etilgan o‘quv jarayoni vaqtida oraliq va yakuniy nazorat o‘tkaziladi.

61. Talabalar tomonidan barcha topshiriq va vazifalar hamda yozma shakldagi ishlar plagiatga tekshiriladi. Plagiat darajasi belgilangan darajadan oshgan taqdirda, ushbu ishlar bajarilmadi deb hisoblanadi va baholanmaydi. Shuningdek, talabalarning berilgan vazifa va topshiriqlar bo‘yicha ishlari va yozma ishlari orasida bir-biridan ko‘chirmakashlik holatlari kuzatilgan taqdirda, ular baholanmaydi.

62. Barcha talabalar o‘z ixtisosliklari bo‘yicha mos (faoliyat yuritayotgan) tashkilotlarga amaliyotchi sifatida biriktiriladi, belgilangan muddat davomida amaliyot joylarida bo‘lishlari lozim. Talabalarga amaliyot joylaridan ijobiy xulosalar berilgan holda, mutaxassislik fanlari bo‘yicha imtiyozli baholarga ega bo‘lishlari mumkin.

63. Respublika va xalqaro miqyosdagi turli tanlov va olimpiadalarda qatnashgan va faxrli o‘rinlarni egallagan, Universitet tadbirlarida o‘zining tashkilotchiligi va faolligi bilan ajralib turgan, turli konferensiya va davra suhbatlari tashkil qilgan va boshqa shu kabi ishlarda munosib qatnashgan talabalar rag‘batlantiruvchi baholar ega bo‘lishlari mumkin.

4-bob. Talabalar bilimini baholash ko‘rsatkichlari

4.1. O‘zlashtirish ko‘rsatkichi (foiz)ni yig‘ish tartibi

64. Talabalar bilimini baholash 100 foizlik tizimda amalga oshiriladi va mazkur o‘zlashtirish ko‘rsatkichi tegishli ravishda GPAga transfer qilinadi.

65. Fan uchun ajratilgan kreditlarni to‘plashda o‘zlashtirish ko‘rsatkichini to‘plash quyidagi mezoni bo‘yicha amalga oshiriladi.

1-jadval

Fan bo‘yicha semestr davomida o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari tavsifi

Joriy nazorat			Oraliq nazorat	Yakuniy nazorat	O‘zlashtirish ko‘rsatkichi
Workshop	Loyiha	Vazifa / topshiriqlar			
W	L	V/T	ON	YN	O’K
20 %	10 %	10 %	30 %	30 %	100 %

4.2. O‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini hisoblash tartibi

66. Workshop. Talabaning dars mashg‘ulotlarda faolligi va ekspress tarzda berilgan savollarga bergan javobi baholanib boriladi.

67. Loyiha ishi. Fanning xususiyatidan kelib chiqib, talaba mini guruhlarga bo‘lingan holda berilgan vazifalarni taqdimot, media, yozma yoki viziual ko‘ranishida himoya qiladi. Guruh a’zolari (komanda) uyushgan holda pedagog-o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqni bajarib kelishadi. Guruhga qo‘yilgan umumiy ball, har bir a’zo-talabaga qo‘yilgan individual ball sifatida qayd etiladi.

68. Vazifa/topshiriqlar. Har bir talaba individul tarzda o‘qituvchi tomonidan berilgan muammoli vaziyat, masala, topshiriqni, esse va hisobot (masalan, 2000 so‘zdan kam bo‘lmagan) ko‘rinishida bajaradi.

69. Talabani kursdan kursga o‘tkazish uning GPA qiymatini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Bunda GPA ko‘rsatkichi 2.5 bahoga teng bo‘lishi talab etiladi. GPA o‘tish ballini to‘play olmagan talaba qayta o‘qish uchun tegishli kursda qoldiriladi. Semestr va o‘quv yili yakuni natijalari bo‘yicha akademik qarzdorligi bor ta’lim oluvchilar o‘qishdan chetlashtirilmaydi. Kursdan kursga qolgan talabalar faqat qarzdor bo‘lgan fanlarni o‘zlashtirib ularga mos ravishda shartnoma mablag‘larini to‘laydi.

2-жadval

Baholashni 100 ballik shkaladan 5 baholik shkalaga o‘tkazish

JADVALI

100 ballik shkala	5 baholik shkala	100 ballik shkala	5 baholik shkala	100 ballik shkala	5 baholik shkala
100	5,00 — 4,96	86	4,30 — 4,26	72	3,60 — 3,56
99	4,95 — 4,91	85	4,25 — 4,21	71	3,55 — 3,51
98	4,90 — 4,86	84	4,20 — 4,16	70	3,50 — 3,46
97	4,85 — 4,81	83	4,15 — 4,11	69	3,45 — 3,41
96	4,80 — 4,76	82	4,10 — 4,06	68	3,40 — 3,36
95	4,75 — 4,71	81	4,05 — 4,01	67	3,35 — 3,31
94	4,70 — 4,66	80	4,00 — 3,96	66	3,30 — 3,26
93	4,65 — 4,61	79	3,95 — 3,91	65	3,25 — 3,21
92	4,60 — 4,56	78	3,90 — 3,86	64	3,20 — 3,16
91	4,55 — 4,51	77	3,85 — 3,81	63	3,15 — 3,11
90	4,50 — 4,46	76	3,80 — 3,76	62	3,10 — 3,06
89	4,45 — 4,41	75	3,75 — 3,71	61	3,05 — 3,01
88	4,40 — 4,36	74	3,70 — 3,66	60	3,00
87	4,35 — 4,31	73	3,65 — 3,61	**60 dan kam**	**3,0 dan kam**

70. Universitetda baholash jarayoni O‘zbekiston Respublikasining va ta’lim tizimi taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarning tajribalarga asoslangan ta’lim standartlariga asosan amalga oshiriladi. Shu jumladan, boshqa xorijiy hamda mahalliy oliy ta’lim muassasalarining baholash jarayoniga mos kelishi, ya’ni

akademik mobillik dasturini ta’minlash maqsadida baholash konvertatsiya qilish orqali amalga oshiriladi.

3-jadval

Toshkent amaliy fanlar universiteti baholash tizimini boshqa baholash tizimlariga konvertatsiya qilish jadvali

<table>
<tr><th>Rossiya tizimi (MDU)*</th><th>Yevropa kredit transfer tizimi (ECTS — European Credit Transfer System)</th><th>Amerika tizimi (A-F)</th><th>Britaniya tizimi (%)</th><th>Yaponiya tizimi (%)</th><th>Koreya tizimi (%)</th><th>TAFU tizimi (%)</th></tr>
<tr><td rowspan="3">«5»</td><td rowspan="3">«A»</td><td>«A+»</td><td rowspan="2">70 — 100</td><td rowspan="3">80 — 100</td><td rowspan="3">90 — 100</td><td rowspan="3">90 — 100</td></tr>
<tr><td>«A»</td></tr>
<tr><td>«A-»</td><td>65 — 69</td></tr>
<tr><td rowspan="3">«4»</td><td>«B»</td><td>«B+»</td><td>60 — 64</td><td rowspan="3">70 — 79</td><td rowspan="3">80 — 89</td><td rowspan="3">70 — 89,9</td></tr>
<tr><td rowspan="2">«C»</td><td>«B»</td><td rowspan="2">50 — 59</td></tr>
<tr><td>«B-»</td></tr>
<tr><td rowspan="6">«3»</td><td>«D»</td><td>«C+»</td><td>45 — 49</td><td rowspan="6">60 — 69</td><td rowspan="3">70 — 79</td><td rowspan="6">60 — 69,9</td></tr>
<tr><td rowspan="5">«E»</td><td>«C»</td><td rowspan="5">40 — 44</td></tr>
<tr><td>«C-»</td></tr>
<tr><td>«D+»</td><td rowspan="3">60 — 69</td></tr>
<tr><td>«D»</td></tr>
<tr><td>«D-»</td></tr>
<tr><td rowspan="2">«2»</td><td>«FX»</td><td rowspan="2">«F»</td><td rowspan="2">0 — 39</td><td rowspan="2">0 — 59</td><td rowspan="2">0 — 59</td><td rowspan="2">0 — 59,9</td></tr>
<tr><td>«F»</td></tr>
</table>

4.3. Baholash natijalarini qayd qilish tartibi

71. Talabalar bilimini baholash tegishli fan bo‘yicha professor-o‘qituvchi tomonidan Guruh jurnali va(yoki) Universitetning elektron ta’lim platformasida (bundan buyon matnda Jurnal deb yuritiladi) qayd etib boriladi.

72. Professor-o‘qituvchi joriy nazorat baholarini shu kunning o‘zida Jurnalga qayd etib boradi. Agar baholash mustaqil ta’lim shaklida esse, assesment yoki boshqa turdagi yozma ish shaklida o‘tkazilgan bo‘lsa, bunda professor-o‘qituvchi natijalarni kamida 3 kun ichida Jurnalga qayd etishi lozim.

73. Talaba joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni topshirishda sababsiz qatnashmagan hollarda “i/e” (ishtirok etmadi) belgisi yozib qo‘yiladi.

74. Qog‘oz shakldagi o‘zlashtirish qaydnomalari tegishli fan bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini olib borgan professor-o‘qituvchi va o‘quv nazorat ishlari bo‘limi tomonidan imzolanadi hamda o‘quv nazorat ishlari bo‘limi (fakultet dekanati)da saqlanadi. Jurnalning saqlanishi uchun dekanatda mas’ul xodim belgilanadi.

75. Vazifa/topshiriq va loyiha topshiriqlari sillabusda belgilangan muddatlarda o‘tkazilib, ularning natijasi kamida uch kun ichida Jurnalning tegishli qismida qayd etib boriladi.

76. Oraliq nazorat va yakuniy nazorat natijalari ko‘pi bilan 7 ish kunida jurnalda qayd etiladi.

77. Semestr yakunida, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi jamlanayotganda 4.2. bo‘limida keltirilgan shakllar asosida Jurnalning tegishli qismiga o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari ko‘chiriladi.

78. Jurnala)ning o‘z vaqtida, to‘g‘ri va xatosiz yuritilishi, shuningdek, undagi baho va boshqa ma’lumotlarga o‘zgartirishlar kiritilmasligi uchun tegishli fan bo‘yicha professor-o‘qituvchi mas’ul hisoblanadi.

79. Yakuniy nazoratdan oldin tegishli fan o‘qituvchisi joriy va oraliq nazorat bo‘yicha ballarini o‘zlashtirish qaydnomasiga kiritishi shart.

80. Baholash natijalari kafedra majlislari, fakultet va Universitet Kengashlarida muntazam ravishda muhokama etib boriladi va tegishli qarorlar qabul qilinadi.

4.4. O‘zlashtirilmagan fanlarni qayta topshirish tartibi

81. Talaba 0-59 oralig‘ida o‘zlashtirish ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan taqdirda tegishli fandan o‘zlashtirmagan (feyl) hisoblanadi.

82. O‘zlashtirilmagan fanlarni qayta o‘zlashtirish uchun talaba kelgusi semestr davomida fan o‘qituvchisi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarishi zarur.

83. Talabaning o‘zlashtira olmagan fanlar soni uch va undan ortiq bo‘lgan xolatda, bir semestr davomida faqat ikkita fandan qayta o‘zlashtirish uchun ruxsat etiladi.

84. Talabalar oraliq va yakuniy nazoratlarni yetarli darajada topshira olishmagan bo‘lsa, belgilangan tartibdagi to‘lovlarni amalga oshirib, barcha turdagi “qoniqarsiz” (o‘zlashtirilmagan) nazoratlarni qayta topshirish huquqiga egadirlar.

5-bob. Yakuniy qoidalar

85. Ushbu tartib Toshkent amaliy fanlar universitetida ta’limni kredit tizimida baholash jarayonlarini tartibga soladi.

86. Tartibga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish Toshkent amaliy fanlar universiteti Kengashi tomonidan amalga oshiriladi.